

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva	
No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar	835
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi	838
M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova	
Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari.....	841
S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov	
Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition	847
M.T.Abdullayeva, M.Nazarov	
Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati	850
M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova	
Soil pollution by waste and measures to it prevent	854
D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova	
Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari	857
D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova	
Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi	862
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar	868

ILMIY AXBOROT

Z.V.Alimova, M.A.Usmanova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar va forsiy izofa haqida	871
X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova	
Isajon Sultonning "Ozod" romanida intertekstuallik	876
M.A.Jo'rayeva	
Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni.....	880
A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova	
Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi	884
I.I.Rustamova, D.A.Abdurahobova	
Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari	887
A.G.Sabirdinov	
Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida	890
A.A.Qayumov	
Hastalangan ruhiyat tasviri	894
R.M.Umurzakov	
Avtobiografik qissalarda bola obrazi	899
Q.V.Yo'lchiyev, A.Charos	
Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida ironiyaning o'rni	903
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq leksemalar xususida	907
G.A.Ikromova	
Dramalar tilida antroponimlarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida).....	913
I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva	
Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar	918
N.A.Abdualiyeva	
Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi	922
A.R.Dadajonov	
Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi.....	927
D.R.Teshaboyev	
Havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishqlik	930
I.T.Axmadjonov, A.R.Dadajonov	
Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari	936



UO'K: 811.512.133; 81'42

MUHOKAMA NUTQINING KOMPOZITSION QURILISHI**КОМПОЗИЦИОННОЕ ПОСТРОЕНИЕ ДИСКУССИОННОЙ РЕЧИ****COMPOSITIONAL CONSTRUCTION OF DISCUSSION SPEECH****Dadajonov Avazbek Rahmatjon o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Nutqning funksional-semantik turlaridan muhokama nutqi kompozitsion qurilishi jihatidan nutqning boshqa turlaridan farq qiladi. Muhokama nutqi ko'plab ilmiy manbalarda, asosan, uch qisimdan tashkil topishi berib boriladi. Qaysiki: tezis, dalillar va xulosa. Bu ilmiy maqolada nutqning bu turini kompozitsion qurilishi haqida ilmiy farazlar berilgan.

Аннотация

Среди функционально-смысловых типов речи дискуссионная речь отличается от других типов речи композиционным построением. Во многих научных источниках дискуссионная речь в основном делится на три части. Какие: тезис, доказательства и заключение. В данной научной статье представлены научные гипотезы о композиционном построении этого вида речи.

Abstract

Among the functional-semantic types of speech, discussion speech differs from other types of speech in terms of compositional construction. In many scientific sources, the discussion speech is mainly divided into three parts. Which: thesis, evidence and conclusion. This scientific article presents scientific hypotheses about the compositional construction of this type of speech.

Kalit so'zlar: kompozitsiya, tezis, dalil, argument, xulosa, hukm, kompozitsion nutq, isbot, asoslash.

Ключевые слова: сочинение, тезис, доказательство, довод, вывод, суждение, составная речь, доказательство, рассуждение.

Key words: composition, thesis, evidence, argument, conclusion, judgment, composite speech, proof, reasoning

KRISH

Matn eng muhim lingvistik tushunchadir. U til, nutq haqidagi barcha ma'lumotlarni birlashtiradi. Matn haqiqiy aloqa birligidir. Aslida, biz matnlarda yozamiz, matnlarda gapiramiz. Shuning uchun ularni o'rganish muhimligini isbotlashning hojati yo'q.

Bu maqolada muhokama nutqining kompozitsion qurilishi qanday hosil bo'lishi, nimalardan tashkil topishi o'rganib chiqiladi.

Tezis, dalil, xulosa muhokama nutqining kompozitsion qurilishini tashkil qiladi, bundan tashqari ayrim manbalarda dalilga qo'shimcha qilib argumentlar ham beriladi. Bu uch asosiy qism muhokamada qanday o'rin egallashi maqolaning asosiy mazmunini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Matn lingvistikasi bugungi tilshunoslikning eng keng o'rganilayotgan yo'nalishlaridan. Bu sohani o'rganishda qiyosiy-tahliliy metodlar muhim sanaladi. Muhokama matni kompozitsiyasi ham shunday tahlillarga asosanib tadqiq qilingan. Nacheyeva va shu kabi olimlarning ilmiy qarashlari chog'ishtirilgan.

Matnning nazariy muammolarini aniqlashda va ularning nutqiy xususiyatlarini ko'rsatib berishda tavsifiy, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Bundan ko'rinib turibdiki, muhokama nutqining semantik turlari hukmning ma'nosiga bog'liq bo'lib, har bir muhokama bir-biridan faqat xulosa chiqarishni ifodalovchi gapning ma'nosi bilan emas, balki shu gapning grammatik shakli bilan ham farqlanadi.

Matn eng muhim lingvistik tushunchadir. U til, nutq haqidagi barcha ma'lumotlarni birlashtiradi. Matn haqiqiy aloqa birligidir. Aslida, biz matnlarda yozamiz, matnlarda gapiramiz. Shuning uchun ularni o'rganish muhimligini isbotlashning hojati yo'q.

Bu maqolada muhokama nutqining kompozitsion qurilishi qanday hosil bo'lishi, nimalardan tashkil topishi o'rganib chiqiladi. Dastlab kompozitsia atamasiga to'xtalib o'tamiz

«Kompozitsia [*lot.* compisitio – tuzish; ijod qilish] **1** Adabiy asar, san'at asari qismlarining tuzulishi, joylashishi va o'zaro munosabati, ularning qo'shib ketishi, qo'shilgan yaxlitligi. *Romanning kompozitsiyasi.* **2** Tarkibiy qismlari o'zaro bog'lanib, birlik tashkil etgan badiiy asar, musiqa yoki rassomlik asari. Haykaltaroshlik, me'morchilik kompozitsiyalari bamisoli jangnomaning qahramonlaridek qad ko'taradi. (Gazetadan) **3** mus. Musiqa asari yaratish nazaryasi.» [1;396]

Kompozitsiya – matn mohiyati, mazmuni, masalalari, janri va maqsadiga ko'ra matnning tarkibiy qismlarining tuzilishini, joylashishini, o'rnini ochib beruvchi bir tuzilmadir.

Matnlardagi matn kompozitsiyasi uni qurish, matn qismlarini, hosil bo'lishini, tasvirlarini bog'lash usuli kabi vazifalarni bajaradi.

Muhokamaning semantik, asosiy va tarkibiy jihatdan yetakchi qismi tezis yoki xulosa asosida yuzga chiqqan hukmidir. Muhokamalar matndan yuzaga chiqqan shu xulosaga kelish uchun amalga oshiriladi. Muhokama nutqida har doim qandaydir savolga yechim topiladi. Bunda, asosan, ilmiy, ommaviy yoki kundalik, umumiy yoki shaxsiy muhokamada muallif yoki ma'ruzachi haqiqiy dalillar asosida kerakli xulosalarni isbotlashi shart.

Muhokama matni kompozitsion qurilish nuqtaiy nazardan, asosan, uch qisimdan tashkil topadi.

1. Tezis. Asosiy g'oya. Mavzu.
2. Dalillar. Isbotlash uchun, yoki rad etish uchun.
3. Xulosa. Matndan anglashilgan umumiy fikr yoki hukm.

«**Tezis** ([qadimgi yunoncha](#): *θέσις*, *thesis* — „qoida“, „isbot“) **1**) keng ma'noda – ilmiy qarash yoki biror nazariyani bayon qilishda aytilgan har qanday fikr; tor ma'noda – asosiy fikr, prinsip; **2**) mantiqda isbot qilishni talab etuvchi fikr, mulohaza. Tezis – ilmiy maqola yoki konferensiyalar uchun taqdim qilinadigan ilmiy maruzaning qisqa asosiy mazmuni aks ettirilgan ilmiy ish turi bolib, uning hajmi annotatsiyadan kattaroq, biroq ilmiy maqoladan kichik boladi (taxminan 1 betdan 3-4 betgacha). Tezislari, odatda, nashr va konferensiya talablariga asosida bir necha tillarda beriladi. Uni ilmiy asarga beriladigan tanqidiy baho, tanqidiy talqin aks etgan taqriz bilan chalkashtirmaslik kerak» [2. 18].

Tilshunos olim T.Jerebilo o'zining tilshunoslik terminlari lug'ati kitobida tezis haqida quydagicha fikrlarni beradi. «Tezis [qadimgi yunoncha. *thesis* pozitsiyasi, bayonoti]. 1) isbotlash, himoya qilish yoki rad etish uchun tanlangan bayonot; 2) asosiy gap. matn; 3) fikrlashda matnning asosiy tarkibiy qismlaridan biri - dalil, mulohaza-isbot, mulohaza-tushuntirish.

Tezisning ikki ko'rinishida ham ko'rdikki, asosiy g'oya fikr, mulohaza, isbotga qaratilgan bo'ladi. Muhokama matni kompozitsiasidagi tezis ham, aynan, matnning dastabki mazmunini ochishga qaratilgan bo'ladi.

Tezis – bu haqiqatni isbotlash kerak bo'lgan taklif, mavzu. U matnning asosiy mavzusini belgilab beradi. Muhokama nutqida esa muhokama, bahs uchun mavzuni ochib beradi. Shunday holatlar ham borki, agar tezis muallif nuqtayi nazarida noto'g'ri bo'lsa, muhokama tuzulishiga antiteza, yani yuqoridagi tezisga qarama-qarshi bo'lgan hukm beriladi. Shunday vaziyatlarda antitezani isbotlash uchun kirish so'zlardan unumli foydalaniladi.

Muhokama qurilishining ikkinchi komponenti dalildir. «**Dalil** – [arb - belgi, iz; isbot; sabab] **1**. Fikr, mulohaza shu kabilarni tasdiqlovchi, ular haqida dalolat beruvchi narsa, isbot, fakt. *Ma'qul emas, deyish bilan ish bitmaydi, birorta dalil kerak.* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar). **2**. Huq. Jinoyatni tasdiqlovchi narsa, fakt yoki holat. *U o'z raisini qo'lga tushurgan hujjatlaridan, dalillaridan, tergov natijalaridan xabardor qildi*» [3; 548]

Muhokama nutqining bir qismi bo'lgan dalillar nafaqat ilmiy nutqda, balki publitsistikada, badiiy asarlarda va kundalik muloqotda ham qo'llaniladi. Darhaqiqat, odamlar bilan og'zaki muloqot yoki suxbat amaliyotini asossiz, dalillarsiz tasavvur qilish qiyin.

ILMIY AXBOROT

Dalil muhokama nutqining kompozitsion tuzilishida asosan tezisdan keyin qo'llanilib, matndan anglashilgan tezisni ochib berishga, isbotlashga qaratilgan bo'ladi. Isbotlangan dalillar orqali muhokama ishritokchilari xulosaga kelishlari mumkin.

Uchinchi va asosiy muhokamaning zaruriy qismi xulosadir. «**Xulosa** tafakkurning asosiy mantiqiy shakllaridan biri. Unda mantiqning ma'lum qoidalari yordamida bir yoki bir necha hukm (asos)dan yangi hukm chiqariladi. Xulosa chiqarish chin asoslarga tayansa va to'g'ri dalillarda foydalanilsa, bu vaqtda chiqarilgan xulosa ham ishonchli bo'ladi.

Xulosalar insonlarda oldinda ma'lum bo'lgan qarash yoki nazariya orqali to'ldiriladigan axborotlarning yetishmayotgan qismidir. Masalan, biror bir matnda tashqarida qor yog'ayotganligi haqida ma'lumot kelsa, bizda o'z-o'zidan tashqari soviq ekanligi va issiqroq kiyinib chiqish kerakligi to'g'risida xulosa paydo bo'ladi.

Ayrim muhokama matnlarida xulosa oldindan ma'lum bo'lishi ham mumkin, so'zlovchi buning uchun asos topadi. Biz isbotlash jarayoni bilan isbot talab qilish kerak bo'lgan takliflarni oldindan shakllantirilgan hollarda ham, shakllantirilmagan hollarda ham ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Muhokama matnining umumiy ma'nosi xulosaning ma'nosiga bog'liq bo'lsa, xulosaning ma'nosi esa, o'z navbatida, butun matn mavzusining maqsadiga asoslangan bo'ladi.

Muhokama matnidagi bu semantik ma'nolar xulosa hukmida mavjud bo'lib, bu xulosani ifodalovchi gapning grammatik shakli ushbu semantik ma'nolarga bog'liq. Matn argumentidagi dalillar faqat xulosa chiqarishda ko'rsatilgan narsa va hodislarning sababini ko'rsatadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, muhokama nutqining semantik turlari hukmning ma'nosiga bog'liq bo'lib, har bir muhokama bir-biridan faqat xulosa chiqarishni ifodalovchi gapning ma'nosi bilan emas, balki shu gapning grammatik shakli bilan ham farqlanadi.

Shu uch qism: tezis, dalil, xulosa muhokama nutqining kompozitsion qurilishini tashkil qiladi, bundan tashqari ayrim manbalarda dalilga qo'shimcha qilib argumentlar ham beriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. K. 396-bet
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tezis>.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. K. 548-bet
4. Abdullaev A. Uzbek in the language of expressiveness expression . - T: Fan, p. 41
5. Kasimova M. Artistic speech Linguistic features of individuality.- Andijan , NDA.
6. Mamajonov M. On the matter of pragmatics of names in Uzbek language. //International scientific journal. Philadelphia. 2019, No. 11 (79) – P. 316-318. (Impact Factor: GIF-0.546, SJIF – 2.031, ICV – 6.630)
7. Khojaliyev , I. (2021). Methodology And Significance Of Meaning In Translation Of Uz
8. Kuldashev , N., Parviz , A., & Avazbek, D. (2022). Fazli Namangani's " Collection Poet " Review Zullisonayn Issue. *Spanish Journal of Innovation oath Integrity* , 6 , 429-433.
9. Khojaliyev, I., & Dadajonov, A. (2021). On the characteristic of the discussion of the style of speech. *Studenchesky vestnik* , (19-11), 15-16.
10. Dadajonov , AR, & Hojaliev , IT (2021). Discussion your speech to himself special features . *Studenchesky newspaper* .
11. Koldoshev , N., Avazbek, D., & Parviz , A. (2022). Language and speech purity about of our ancestors thoughts _ *International in communication ethics and diversity magazine* , 2 (4), 10-16.
12. Hojaliev, I. T. (2021). Distinctive features of discussion speech. *Studenchesky Vestnik* , (7-3), 93-95.
13. Kholmatov , D., & Dadajonov , A. Philosophical views and ideological scope of Jaloliddin rumi's works. *Collection articles scientist recenzowanych* , 162 .
14. DADAJONOV, A. (2021). Concerning the lexical-semantic features of discussion speech. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Uchrediteli: Teoreticheskaya i prikladnaya nauka* , 12 , 378-382.
15. Dadajonov , A. (2023). About monological types of speech. *Modern science and studies* , 2 (6), 1236-1239.
16. Ahmadjanov , I. (2023). Semantic and stylistic characteristics of grammatical number form. *Modern science and studies* , 2 (6), 1093-1098.
17. Dadajonov, A. (2024). Munozaka nutqi va uning o'rnishi. *Tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha xalqaro ko'p tarmoqli jurnal* , 11 (01).
18. Dadajonov, A. (2024). Nutqdagi muhokama so'z turlari. *Tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha xalqaro ko'p tarmoqli jurnal* , 11 (01).
19. Solijonovna, JOG, & Inomjonovich, SA (2024). "Rashidiy tarixi" asarida foydalanilgan antroponimik ko'rsatkorlarni o'rganish haqida. *G'arbiy Evropa tilshunoslik va ta'lim jurnali* , 2 (5), 363-371.